




Paulo KOELO

ALKIMYOGAR

Insonning Yerdagi umri mobaynida amalga oshiradigan ishlari nimalardan iborat? O'z Taqdiri yo'lidan borib, ko'ngliga tukkan orzu-umidlarini amalga oshirishi uchun insonga eng zarur narsa nima?..

“Alkimyogar” romani mana shunday ko'lamli, mazmunan falsafiy, mohiyatan esa oddiy insoniy muammo haqida.

Asar muallifi— hozirgi zamonning mashhur yozuvchisi braziliyalik Paulo Koelo.

“Alkimyogar” Richard Baxning “Oqcharloq Jonatan” yoki “Sharpalar” asarlariga o'xshamaydi. Ekzyuperining “Kichik Shahzoda”siga ham o'xshash tomonlari juda kam. Biroq negadir “Alkimyogar”ni o'qiganda beixtiyor o'sha rivoyat-qissalar yodga tushadi. Zotan, bu asar aynan hozirgi zamon kitobxonlari uchun yozilgandek va “Alkimyogar”ning turli davlatlar arboblariyu, mashhur san'atkorlar hamda hozircha bir yuz o'n yetti mamlakatdagi millionlab adabiyot muxlislari tomonidan sevib o'qilishi shundan dalolatdir.

“Bizning sayyoramizda bir buyuk haqiqat barqaror: agar siz chindan nimanidir orzu qilsangiz, unga albatta erishasiz. Zotan, bu orzu Olam Qalbida ham tug'iladi va ayni shuning o'zi sizning Yerda mavjudligingiz tasdiqi, sizning taqdiringizdir”, deb yozadi P. Koelo.

Tarjimon

Ahmad OTABOY tarjimasi

ORZU YO'LIDAGI TO'RT TO'SIQ

“Sofiya” nashriyoti chop etgan “Alkimyogar” romanining birinchi nashrini qo'lga olib, chin dildan quvondim. Bir necha yil mobaynida rossiyalik tashabbuskor kitobxonlar bu kitobni imkon darajasida yoyishga urinishdi— Internetga joylashdi, qo'lbola kitob shaklida tayyorlab almashib o'qishdi, asar matnining fotonusxasini chiqarishdi. Biroq barcha sa'y-harakatlarga qaramay, turli bahonayu sabablar bois, hozirgacha “Alkimyogar”ni kitob tarzida nashr etib, bozorga olib kirishning iloji bo'lmagan edi.

Mana, nihoyat uni nashr qilib, talab darajasida tarqatishga jur'at etadigan nashriyot chiqib qoldi. Romanda hikoya qilingan cho'pon bola Santyagoning sayohati bilan bog'liq voqealar asosida yotgan tub ma'no-mazmun— bu “O'z Taqdiring” tushunchasidir. “O'z Taqdiring” nima degani? Bu Xudo tomonidan bizga buyurilgan, umrimiz mobaynida ado etishimiz lozim bo'lgan oliy majburiyat, har qaysimizning bosib o'tadigan o'z yo'limizdir. Biz har safar biror-bir amalni quvonch va hafsala bilan bajarganimizda, O'z Taqdirimizga